

MAKTABGA TAYYORLOV GURUHIDA LOYDAN O'YINCHOQ BUYUMLAR YASASHGA O'RGATISH.

¹Baxriddinova Nargiza Jaloliddinovna,

²Qo'ysinboyeva Iroda

¹JDPU Pedagogika va psixologiya fakulteti tyutori,

²Maxsus Pedagogika (Logopediya) 518.22 –Guruh Talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7416904>

Anotatsiya. Jarayonida bolalar bilan tasviriy va texnik vazifalar ham o'tilishi shu bilan birga, tarbiyaviy xarakterdagi vazifa ham ko'proq hal etiladi, chunki jamoa loy yashlari bilan shug'ullanganda, ularga yaxshi imkoniyat yaratib beriladi. Shuningdek, bolalar tasavvurlari asosida, naturaga qarab loy ishlarini bajaradilar. Bolalar loy bo'yicha olgan bilim-malakalari asosida ishlab, o'yinda foydalanish uchun turli xil predmetlarni yasaydilar.

Kalit So'zi: Go'dakning ulg'ayib, kasb tanlashi, kelajakda qanday yo'ldan borishi, bolalar mustaqil ravishda tasvirlashning texnik usullaridan keng va erkin foydalanishi

O'sib kelayotgan yosh avlodni har tomonlama barkamol o'sishi, uning jismoniy, axloqiy va ma'naviy tarbiyasi to'g'risida g'amxo'rlik qilib voyaga yetkazish masalasi davlatimiz siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri etib belgilangan, shu maqsadda ishlab chiqilgan O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi hayotga izchil tatbiq etilmoqda. Bugungi kunda yurtimizda faoliyat yuritayotgan 6200 dan ziyod maktabgacha ta'lim muassasasida 577000 nafardan ortiq bola, shu jumladan, 60 dan ziyod nodavlat maktabgacha ta'lim maskanlarida 5000 nafarga yaqin o'g'ilqiz tarbiyalanyapti. Mazkur ta'lim muassasalarida yosh avlodga puxta bilim berish, ularda zarur ko'nikmalarni shakllantirish bilan birga, kelajagimiz vorislarini boy tariximiz, qadriyat va an'analarimizga hurmat, milliy g'oyalarga sadoqat, ona-Vatanga muhabbat kabi ezgu g'oyalar asosida tarbiyalashga alohidae'tibor qaratilmoqda. Mamlakatimizning kelajagi va ertangi kuni bugun farzandlarimizning qanday tarbiya olayotganligiga bog'liq. Shu bois ham O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va hukumati tomonidan xalq ta'limi sohasiga juda katta e'tibor berilmoqda. "Bizning asosiy vazifamiz o'quv-tarbiya jarayoni sifatini jahon standartlari darajasiga ko'tarish, ta'lim, zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarning butunlay yangi usullarni joriy etishdan iborat bo'lmog'i lozim", - degan edi. muhtaram yurtboshimiz. Shuningdek Prezidentimizning "Yuksak ma'naviat-yengilmas kuch" asarida "Har qaysi ota-ona, tarbiyachi va ustoz har bir bola timsolida avvalo shaxsni ko'rishi zarur. Ana shu talabdan kelib chiqqan holda, farzandlarimizni mustaqil va keng fikrlash

qobiliyatiga ega bo'lgan, ongli yashaydigan komil insonlar yetib voyaga yetkazish - ta'lim-tarbiya sohasining asosiy maqsadi va vazifasi bo'lishi lozim, deb qabul qilishimiz kerak" - deya ta'kidlagan. O'z shaxsi va jamiyat bilan uyg'un yashaydigan, ma'nan yetuk, ya'ni keng bilimlarga, erkin tafakkurga, nozik didga va yuksak axloqiy fazilatlarga ega, o'zo'ziga ham, jamiyatdagi kamchilik va yutuqlarga ham tanqidiy qaraydigan, ijodkor, izlanuvchan, jismonan va ruhiy sog'lom avlodni tarbiyalashni avvalo oiladan va maktabgacha ta'lim muassasalaridan boshlash kerak. "Yoshlarning ma'naviy olamini bolalikdan boshlab ezgu g'oyalar asosida shakllantirish va kamol toptirish haqida gap bor ekan, yana bir muhim masala xususida to'xtatilib o'tish o'rinli, deb o'ylayman. U ham bo'lsa, dunyoga hayrat ko'zi bilan boqib, undan o'zicha ma'no topishga intiladigan murg'ak farzandlarimizning qiziqishi va hissiyotlariga mos qo'g'irchoq va o'yinchoq ishlab chiqish masalasidir. Bir qaraganda, bu muammo arzimas narsa bo'lib tuyulishi mumkin. Lekin, har qaysi go'dak ilk bor olamni o'z atrofidagi ashyo va buyumlar, jumladan o'yinchoqlar orqali aniqlashini inobatga oladigan bo'lsak, ularning inson tarbiyasidagi o'rni beqiyos ekani ayon bo'ladi. O'yinchoqlar obrazi bolaning murg'ak tasavvuriga bamisoli toshga o'yilgan naqshdek muhrlanib, uning ongida bir umr saqlanib qoladi. Go'dakning ulg'ayib, kasb tanlashi, kelajakda qanday yo'ldan borishi, o'zining hayot tarzini qanday axloqiy-ma'naviy asoslarga qurishi ham, hech shubhasiz, uning bolalikda qanday o'yinchoqlar bilan oshno bo'lib o'sgani bilan belgilanadi. Afsuski, hozirgi vaqtda farzandlarimiz ko'pincha xorijda ishlab chiqilgan, bizning milliy tabiatimizdan uzoq bo'lgan o'yinchoq va qo'g'irchoqlarni o'ynab ulg'aymoqda" degan fikrlar I.A.Karimovning "Yuksak ma'naviyat -yengilmas kuch" asarida o'z aksini topgan. Demak, yosh avlodni qanday insonlar bo'lib voyaga yetishini, kasb tanlashi, kelajakda qanday yo'ldan borishi uning bolalikda sevib o'ynaydigan o'yinchoqlariga ham bog'liq ekan. Tayyorlov guruh bolalarining loy ishlari xilma-xil va qiziqarlidir. Bunga sabab bola ham jismoniy, ham fiziologik rivojlangan bo'ladi. Bolalar predmetlar shaklining aniq tasviri, proporsiyasni to'g'ri berishga o'rganadilar. Bu guruh katta guruhga nisbatan bir bo'lak loydan cho'zib chiqarish usuli orqali ko'proq ishlaydilar. Shuningdek, stekdan keng foydalanadilar, bu bilan har xil operatsiyalar bajaradilar. Tayyorlov guruhida loy ishlarini o'rgatish dasturi xilma-xil va murakkabdir. Bolalar predmetlarning shakllarini ko'rib, his qilib, idrok etishga o'rganadilar. Bu guruhda bolalar mustaqil ravishda tasvirlashning texnik usullaridan keng va erkin foydalana olishlari kerak. Shuningdek, bolalar tasvirlashning haykaltaroshlik usulidan keng foydalanadilar. Tarbiyachi bolalarning ijodiy faolligini o'stirib, ularga mustaqil ishlash ucuin keng sharoit yaratib berib, bolalarni mustaqil mavzu

topib, tasvir usullarini ham mustaqil o'ylab topishga o'rgatib boradi. Tarbiyachi bo'jalarga xarakterli shakldagi predmetlarni loydan yasashni taklif etadi. Masalan, sabzavot, mevalar. Agar katta guruhda turli sabzavot va mevalarni loydan yasashga o'rgatilsa, tayyorlov guruhida ancha murakkab vazifa topshiriladi. Masalan, turli xil shakldagi bir xil guruhga kiruvchi predmetlarni, olmaning ikki navi — krem va antonovka va bodringning bir necha navlarini. Bu kvartalda bolalar o'yinchoqni, haykaltaroshlik usullari asosida harakatdagi predmedlarni loydan yasashga o'rganadilar. Masalan, bo'ynini cho'zib qichqirayotgan xo'roz, koptok o'ynayotgan mushukcha va boshqalar. Bundan tashqari, bolalar bu kvartalda tasawurlari asosida turli hayvonlarni yasaydilar. Shuningdek, bolalar odam figurasini yasashda davom etadilar. Masalan, asosan, Dimkova qo'g'irchog'i. Dimkova qo'g'irchoqlarini yangi texnik usul asosida yasaydilar, ya'ni boshi va koftalari alohida loy bo'lagidan, yubkasini esa, alohida, boshqa loy bo'lagidan, loyni yassilab konussimon shakl asosida yasashadi. Bolalar o'z tasawurlari asosida mavzu bo'yicha «Qiz bola yoki bola bayroqcha ko'tarib ketyapti», «Bola maktabga ketyapti» kabi ishlarni yasaydilar. Bolalar yalmog'iz kampir, chipollino va boshqa ertak qahramonlarini yasaydilar. Bunday ishlarni bajarish esa bolalarda ijodiy faollikni, mustaqillikni, tasvir etishning yangi vositalarini o'ylab topishga yordam beradi. Bolalar bu kvartalda butun bir loy bo'lagidan yasash ustida izlanadilar va dekorativ loy bo'yicha keng imkoniyatlarga ega bo'ladilar. Masalan, asosan, xalq o'yinchoqlari, idishlar, dekorativ plastinkalar yasaydilar. Tayyorlov guruhida bolalar idishlarni yangi usulda yasaydilar. Bu usul idishlarni halqachalar hosil qilib yasash va stek yordamida loyni olib tashlash usulidir. Masalan, halqachalar yasalib, ustma-ust qo'yilib, bir-biriga mustahkam o'rnatilib, so'ng ichki va tashqi tomonidan ulangan qismlari tekislanib, silliqalanib chiqiladi. Loyni stek bilan o'yib olib tashlash usulida, chap qo'l bilan silindrsimon, sharsimon shakllardan o'sha predmet ushlanib, o'ng qo'lda stek bilan ichki qismidan loy olib tashlanadi. Masalan, halqachalar usulida krujka, tog'oracha, gullar uchun vaza, chashka, ikkinchi usul bilan kuvshin, ko'zachalar, xumlar, ya'ni dumaloq va silindrsimon predmetlar yasash mumkin. Bolalar jamoa loy ishlariga o'rganadilar. Masalan, parrandalik fermasi, hayvonot bog'i. Bular jarayonida bolalar bilan tasviriy va texnik vazifalar ham o'tilishi shu bilan birga, tarbiyaviy xarakterdagi vazifa ham ko'proq hal etiladi, chunki jamoa loy yashlari bilan shug'ullanganda, ularga yaxshi imkoniyat yaratib beriladn. Shuningdek, bolalar tasavvurlari asosida, naturaga qarab loy ishlarini bajaradilar. Bolalar loy bo'yicha olgan bilim-malakalari asosida ishlab, o'yinda foydalanish uchun turli xil predmetlarni yasaydilar. Masalan, vazalar, turli xil idishlar plastinkalar va boshqalar. Bu

tayyorlov guruhida predmetli, mazmunli dekorativ, loy ishlarining turlari uyushtiriladi. Bularning barchasi ixtiyoriy ravishda ham uyushtirilishi mumkin. Bu guruhda tarbiyachi mashg'ulotlar uyushtirganda, bolalar bilan birgalikda kuzatish va predmetlarni ko'rib chiqish usulidan keng foydalanadi. Kuzatish va ko'rib chiqish jarayonida tarbiyachi bolalar diqqatini predmetning shakliga, xarakterli xususiyatiga, holatiga tortadi. Kuzatish, ko'rib chiqish vaqtida tarbiyachi bolalarga savollar bilan murojaat qiladi. Shuningdek, bolalarga turli xil illustrativ kitobchalar, rasmlar ko'rsatib, birgalikda ko'rib chiqish mumkin. Odam figurasining tasviri ancha murakkab jarayon hisoblanadi. Shuning uchun tarbiyachi bolalar bilan birgalikda turli xil qo'g'irchoqlarni (sanitarka, kosmonavt) ko'rib chiqadilar. Sayr vaqtida kuzatishlar uyushtiriladi. Predmetlarning harakat vaqtidagi vaziyatiga, holatiga bolalar diqqatini tortadi. o'ynashni ko'rib chiqish vaqtida bolalar diqqatini harakatning plastikligiga, uning qaysi usul bilan yasalganligiga jalb etadi. Shuningdek, hali o'yinchoqlar bilan yangidan tanishtirish maqsadida bolalar bilan « 0 'yinchoqlar do'koni» degan didaktik o'yin uyushtiriladi. 0 'yinchoqning xususiyati haqida suhbat qiladi. Idishlarni yasashda tarbiyachi bolalar diqqatini idishning shakliga qaratadi, qanday usullardan foydalanib yasash mumkinligi haqida so'raladi. Xalq amaliy-dekorativ san'at muzeyiga olib borishi mumkin. Bolalarga predmetli yoki mazmunli loy ishlarini o'rgatishda, shuningdek, badiiy adabiyotdan keng foydalanadi. Shunday asarlarni tanlab o'qib berish kerakki, bolalar eshitib, o'zlari tasvirlamoqchi bo'lgan qahramonlarini ko'z o'ngida aniq gavdalantira olsin. O'qib berib bo'lgach, bolalar bilan birga qay personajni yasashlari haqida suhbatlashib oladilar. Bu guruhda ham o'yin usullaridan foydalanadi. Masalan, bolalar turli xil idishlar yasashganda, «Ustaxona» o'yinini uyushtirish mumkin, natijada bolalar qiziqish bilan ishlaydilar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1 . Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch I. KARIMOV
- 2 . Fayllar .org .uz
- 3 .MTMda ilk qadam dasturi
- 4 . Rasm , buyumlar yasash va tasviriy faoliyatga o'rgatish metodikalari SH.HASANOVA